


2022- yil yanvar-aprel oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida jami **9 636,4 mlrd. so‘mlik** qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **111,2 %** ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.



Ma’lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2022- yil yanvar-aprel oylarida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo‘yicha
faoliyat ko‘rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar
soni**

2022- yil 1- may holatiga ko‘ra qurilish sohasida ro‘yxatdan o’tgan jami korxona va tashkilotlar soni 9,4 mingta, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 9,0 mingtani tashkil etib, o’tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 686 taga ko‘paygan.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida o’tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 113,7 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 63,9 %) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 89,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 15,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 122,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 20,6 %) Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko‘payishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo‘yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g’ri kelib, 2021- yilning yanvar-aprel oylaridagi jami qurilish ko‘rsatkichiga nisbatan 105,3 % ni tashkil etdi.




Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.05.2021- yil	01.05.2022- yil	
Toshkent shahar	8339	9025	686
tumanlar:			
Uchtepa	601	637	36
Bektemir	178	198	20
Yunusobod	1087	1103	16
Mirzo Ulug'bek	1056	1139	83
Mirobod	763	834	71
Shayxontoxur	652	720	68
Olmazor	709	758	49
Sergeli	460	488	28
Yakkasaroy	855	922	67
Yashnabod	757	837	80
Yangihayot	165	229	64
Chilonzor	1056	1160	104



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.05.2022- yil holatiga




Ma'lumot uchun: Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Chilonzor (12,9 %), Mirzo Ulugbek (12,6 %) va Yunusobod (12,2 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **3 211,6** mlrd. soʻnni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 141,9 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **33,3 %** ni tashkil qildi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Yunusobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **57,6 %**), Yangihayot tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **50,1 %**), Chilonzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **49,3 %**), Bektemir tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **46,4 %**)ga toʼgʼri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-aprel oylari
- 2022- yil yanvar-aprel oylari


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **59,2 %**i bajarilib, 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **2,2 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,4 %** ni tashkil etgan holda **5 706,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **7,4 %** ni tashkil etib, **717,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **73,7 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **166,0** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **68,2 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **1,7 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **9 636,4** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **113,8 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **98,3 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-aprel

63,9 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **63,9 %** yoki **6 155,5 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

22,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 628,4 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **22,3 %** ni tashkil etdi.

34,1 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **3 289,2 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **34,1 %** ni tashkil etdi.

7,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **717,9 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **7,5 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so'm)
Toshkent shahar	9 636,4	111,2	6 470,5
tumanlar:			
Uchtepa	605,1	102,9	370,4
Bektemir	313,2	157,1	199,9
Yunusobod	2 222,3	134,1	1652,9
Mirzo Ulug'bek	1 190,8	103,6	813,5
Mirobod	852,3	106,5	509,7
Shayxontoxur	660,4	100,6	514,7
Olmazor	715,9	91,3	461,4
Sergeli	354,8	104,0	182,2
Yakkasaroy	759,1	105,8	483,6
Yashnabod	865,5	103,1	606,4
Yangihayot	257,3	199,4	145,0
Chilonzor	839,7	103,8	530,7

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,%da

2021- yil yanvar-aprel

18,6



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

19,2



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

62,2



Bino va inshootlarni
qurilishi

2022- yil yanvar-aprel

20,6



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

15,5



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

63,9



Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **34,9 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **170,8 %** ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-aprel oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **105,3 %** ni tashkil qildi, ulushi esa **53,4 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021-yilning yanvar-aprel oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **69,5 %** punktga ko'paydi, **11,7 %** ni tashkil etdi.



■ 2021- yil yanvar-aprel

■ 2022- yil yanvar-aprel




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **43,2 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **74,1 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **56,8 %** ni va 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **105,1 %** ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **21,1 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **305,7%** punktga ko'paydi. **78,9 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **105,9 %** punktga ko'paydi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Yunusobod t.
2 222,3

1

2

Mirzo Ulug'bek t.
1 190,8

3

Yashnabod t.
865,5



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Yangihayot t.
257,3



1

2

Bektemir t.
313,2

Sergeli
354,8

3



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



**Toshkent shahar
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)

**2022- yil yanvar-aprel
oylarida**

Toshkent shahrida qurilish ishlari